Folklorni bilish va uning namunalarini o’rgatish yosh avlod ruhiyatini, ularning o’z xalqi tarixi, milliylik xususiyati to’g’risidagi tasavvurlarini boyitadi. Hozirgi davrda dunyoning barcha qit’alarida o’z xalqi folklori namunalarini o’rgatish, saqlab qolish va yangi ijod namunalar bilan boyitishga katta ahamiyat berilmoqda.

## UMUMIY XULOSALAR

Tadqiqot ishini bajarish davomida umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyani mavjud ahvolini o’rganish, muammolarni aniqlash, ularni ijobiy hal etish yuzasidan olib borilgan izlanishlar xususan, o’quvchi-yoshlarni xalqimizning

milliy musiqiy merosi vositasida estetik tarbiyaash bo'yicha erishilgan natijalar quydagicha xulosalar chiqarish imkonini berdi.

1. O'zbek xalqining milliy musiqiy an'analari, uning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti, maishiy turmush tarzi, etnografik, ruhiy, jamoaviy xususiyatlarini

o'zida mujassam etgan bo'lib, asrlar osha an'anaviylik shaklida rivojlanib, shakllanib kelgandir. Shuning uchun bu ulkan ma'naviy boylikdan yoshlar tarbiyasida foydalanishning keng imkoniyatlari mavjud;

2. Xalqning musiqiy ijrochilik an'analari o'zida xalq pedagogikasining eng ilg'or, insonparvar g'oyalari orqali yoshlarda milliy ong, milliy tafakkurni shakllantirish kuchiga ega ekanligi tadqiqot davomida tasdiqlandi;

3. Milliy musiqiy an'analar vositasida estetik tarbiya jarayonini maxsus pedagogik yondoshuvlar, qiziqarli va mazmunli ish shakl va usullaridan, texnik vositalardan unumli foydalangan holda tashkil etish uning samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi;

4. Pedagogik tajribalar jarayonida shu narsaga ishonch hosil qildikki, umumta'lim maktablarida xalq milliy musiqiy janrlari, an'analari vositasida estetik tarbiyani amalga oshirishning o'ziga xos pedagogik asoslari, metodologiyasi ishlab chiqilmagan. O'quv-uslubiy manbalar, maxsus yozuvlar bilan ta'minlanmaganligi ham bu borada kutilgan natijalarga erishish imkonini bermaydi.

Shunga ko'ra milliy musiqiy an'analar vositasida o'quvchi-yoshlarni estetik madaniyatini shakllantirish jarayonini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan quyidagi tavsiyalarni ilgari surmoqchimiz:

1. Milliy musiqiy an'analar va ularda ilgari surilgan g'oyalardan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalashga ahamiyatni kuchaytirish;

2. Musiqa o'qituvchilari tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim muassasalari mutaxassislik fanlari dasturiga milliy musiqiy merosimiz va uni o'rganishning nazariy-amaliy masalalari bo'yicha mavzularga kengroq o'rin ajratilishiga erishish;

3. Musiqa darslari, sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatda o'quvchilarni musiqiy merosga qiziqishlarini, bevosita shug'ullanish imkoniyatlarini yaratish;

4. O'quvchi-yoshlar o'rtasida milliy musiqiy an'analarni targ'ib etishning ahamiyatga molik shakl va yo'llari yoritilgan o'quv-uslubiy manbalarni yaratish;

5. Xalq musiqa ijodiyoti bo'yicha turli mavzu va janrlar bo'yicha ko'rik-tanlovlar, festivallarni doimiy raivshda tashkil etib borish;

6. Ommaviy axborot vositalari, radio va televideniyeda xalq musiqa ijodiyoti, uning janrlari, ijrochilik an'analari, uslublariga bag'ishlangan maxsus turkumli eshittiruvlarni yo'lga qo'yish lozim.

Shunday bo'lganda musiqiy ta'lim mazmuni, uning milliy negizi yanada mustahkam bo'ladi. Bugungi kunda Milliy estrada musiqasini ravnaq topishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lib, uni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bois, har bir ijodkordan samarali ijod qilishni, xalqimizga manzur bo'ladigan qo'shiqlar va kuylar yaratishlikni talab etadi. Sanhatsevar xalqimiz o'zining haqiqiy ijodkori, fidoyi sanhatkorlarini hamisha ardoqlab kelgan. Zero, hozirgi zamon o'zbek estrada sanhati fidoyi, iqtidorli yosh sanhatkorlarga boy va xalqimiz ishonchini oqlashdek salohiyatga ega.

Umuman olganda, milliy istiqlol tufayli musiqa madaniyatimizning barcha jabhalari shahdam qadamlar bilan yuksalish sari intilmoqda.

Ҳозирги даврда Фан ва маданиятнинг энг сўнгги ютуқлари асосида келаждагимиз бўлган ёш авлодни ҳаётга тайёрлашнинг самарали шакл ва услубларини излаш ниҳоятда зарурдир. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Юксак маънавият енгилмас куч» асарларида кўрсатилгандек, жамиятда юксак маънавий фазилатларни камол топтириш, миллий мафкурани шакллантириш, ишларни бой маданий меросимиз тарихий анъаналаримизга умуминсоний қадриятларга, ватанга муҳаббат, истиқлол ғояларига садоқат руҳида тарбиялаш мамлакатимизда амалга оширилаётган барча ислоҳатларни ҳал қилувчи омилидир. Дарсдан ташқари тарбиявий ишларнинг самарадорлигини ошириш аввало комил инсонни шакллантиришнинг энг замонавий ва қулай йуналишларини топиб жорий этишга боғлик,. Тарбиявий ишларни давр талабига жавоб берадиган ҳолда келтириш учун тарбиянинг асоси бўлган барча ғоялар қайтадан кўриб

чиқилиши, асосий эътибор бола шахсига қаратилиши, йиллар давомида тўплаган ижобий тажрибадан унумли фойдаланиш зарурлигини тақозо этади.

Ўқувчиларнинг эстетик тарбияси турлича тузилиши зарур. Машғулот шакли, мақсади, мазмуни, педагогик жиҳатдан ўзига хослиги, шунингдек иш режалари фан мантиқини ҳисобга олган ҳолда, болалар ёши ва имкониятига кўра фарқланиши лозим. Ўқувчиларни серқирра атрофлича таъсир этувчи эстетик қадриятларга йуналтириш лозим. Биринчи навбатда миллий қадриятлар, она замин табиати, миллий халқ санъати, Шарқнинг, Ўзбекистоннинг бадиий маданияти, тарихига мухаббат туйғусини ривожлантириш

Ўқувчиларни тарбиялаш жараёнида халқ педагогикаси асосларига таяниш, шарқ мутаффаккирларининг доно фикр-мулохазаларидан, шунингдек жаҳон умуминсоний қадриятларидан фойдаланиш лозим. Мактаб ва мактабдан ташқари, таълими муассасалари олдида турган вазифа ягона ички эстетик тарбиянинг тизимларини яратишдир. Бу тизимлар шахснинг ҳар тамонлама яхши ривожланиш бутунлигини белгилайди .Бу аниқлангган янги билимлар тизимини синдириш, ўрганиш, фикрлаш, мулохаза этиш, муносабат, баҳолар, ғоялар, мукаммал билимни оширш ва ўз-ўзини тарбиялашдир. Дарсдан ташқари ишларда эстетик тарбия мазмунини биринчи навбатда мажмуйи, тизимли татбиқ этишга кўра уч вазифа бирлиги-илмий, ривожланиб бориш, психолигик ва педагогик жараёнлар муштараклигига, таълим жараёнида ва жамият талабларини эътиборга олишга, янгича билимларга амал қилиш ва ҳакозо.қоидалар асосида таркиб топиши керак.Улар асосида ўқувчи шахсиятига нисбатан йўналиш белгиланилади.Бу максадларга эришиш учун ўқувчилар билан тўгарак, санъатнинг айрим турларини, жаҳон ва миллий маданиятини ўрганиш ва бошқа тарбия шаклларидан фойдаланиш мумкин. Дарсдан ташқари

ишларнинг барча турларида амалга оширилаётган ва яна қайта тикланаётган турли амалга оширилаётган турли дастурларида шахс шаклланишига, маънавий маъсулият билан яшашга ўргатишни шакллантиршга эътибор қаратилиши лозим. Айниқса ўрта ва катта ёшдаги ўқувчиларни ўз билим ва малакаларини мустаъқил оширишларига ўргатиш керак. Эстетик тарбиянинг янги шакллари ва мазмунини топиш зарур. Жумладан фольклор миллий ансамбллар, миллий рақс ва қўшиклар, санъатининг миллий -ананавий турлари назарияси ва тарихини ўрганиш, кадимий эстетик тарбия восита услубларини тиклаш лозим.

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston, 1998-yil. -683 bet.

2. I.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. –T.: O'zbekiston, 1999-yil. -413 bet.

3. I.Karimov. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-tom. –T.: O'zbekiston, 2001-yil. -439 bet.

4. I.Karimov. Barkamol avlod orzusi. –T.: "O'zbekiston Milliy enseklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-yil. 245 bet.

5. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008-yil. 173 bet.

6. I.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2008-yil.

7. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". "Ma'rifat" gazetasi, 1998-yil. 1-aprel soni.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab quvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 1995-yil. 21-oktyabr.

9. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi-tarbiyasi konsepsiyasi. –T.: 1995-yil. 24-may.

10. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti. Musiqa. 1-4-sinflar uchun. –T.: Ta'lim taraqqiyoti. Maxsus son, 1999-yil.

11. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti. Musiqa. 5-7-sinflar uchun. –T.: Ta'lim taraqqiyoti. Maxsus son, 1999-yil.

12. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993-yil. -225 bet.

13. Alisher Navoiy. Xamsa. –T.: Fan, 1958-yil. -465 bet.

14. Ahmedov M. Hoji Abdulaziz Abdurasulov. –T.: O'qituvchi, 1974-yil. -95 bet.

15. Ahmedov M. Yunus Rajabiy. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977-yil. 146 bet.

16. G'afurbekov T.B. Folklornыye istoki Uzbekskogo professionalnogo tvorchestvo. –T.: O'qituvchi, 1984-yil. -117 bet.

17. Gulyor (Farg'ona xalq qo'shiqlari). –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1969-yil. 68 bet.

18. Karomatov F.M. Xalq muzikasi. O'zbek muzikasi tarixi kitobidan (tuzuvchi Solomonova T.Ye). –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981-yil. 27-34 bet.

19. Kelinoy qo'shiqlari. Xalq qo'shiqlari va termalari. (yozib oluvchi va nashrga tayyolovchi O.Sobirov). –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981-yil. -239 bet.

20. Matyoqubov O.M. Og'zaki an'anadagi professional muzika asoslariga kirish. –T.: O'qituvchi, 1983-yil. -64 bet.

21. Yo'ldosheva S. Xalq urf-odatlari va an'analari. –T.: Ijod dunyosi. 2003-yil. -218 bet.

22. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2000-yil. 80 bet.

23. Navoiy so'ziga musiqalar. Nashrga tayyorlovchi I.Akbarov. –T.: O'zDavnashr, -1949-yil. 122 bet.

24. Ostonasi tillodan. To'y qo'shiqlari. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971-yil. -94 bet.

25. Rajabiy Yu. Musiqa merosimizga bir nazar. –T.: Davlat Badiiy Adabiyot nashriyoti, 1976-yil. 163 bet.

26. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. –T.: O'zbekiston Davlat badiiy Adabiyot nashriyoti, 1963-yil. 300 bet.

27. Tursunov R. Ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyoti. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002-yil. -72 bet.

28. Tolliboyev N. Musiqaviy meros va tarbiya. –T.: O'qituvchi, 1982-yil. 108 bet.

29. Estetik tarbiya asoslari. N.A.Kushayev tahriri ostida. –T.: O’qituvchi, 1988-yil. -269 bet.

30. O’zbek xalq musiqasi. I-II-III-tomlar. To’plovchi va notaga oluvchi Yu.Rajabiy. –T.: O’zbekiston Davlat badiiy Adabiyoti nashriyoti, 1959-yil.

31. O’zbek xalq musiqasi. IV-tom. Xorazm ashulalari. To’plovchi va notaga oluvchi, M.Yusupov. –T.: O’zbekiston Davlat badiiy Adabiyoti nashriyoti, 1960-yil. -590 bet.

32. Qoraqalpoq xalq na’malari. VIII-tom. To’plovchi va notaga oluvchi A.Halimov. –T.: O’zbekiston Davlat badiiy Adabiyoti nashriyoti, 1959-yil. -406 bet.

33. Hamidov H. O’zbek an’anaviy qo’shiqchilik madaniyati tarixi. –T.: O’qituvchi, 1996-yil. -174 bet.

34. Shoda-shoda marvarid. O’zbek xalq qo’shiqlari. To’plab, nashrga tayyorlovchi E.Ochilov. –T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiadorlik kompaniyasi, Bosh tahririyati, 2006-yil. 416 bet.

35. Hasanov A.Sh. Musiqa va tarbiya. –T.: O’qituvchi, 1993-yil. -122 bet.

**Ilova –1.**

1. Xalq qo’shiq va kuylariga qiziqasizmi?
2. Xalq qo’shiq va kuylaridan qaysilarini nomini ayta olasiz?
3. Qo’shiq janriga oid namunalardan misol keltiring.
4. Folklor so’zini ma’nosini bilasizmi?
5. Ommaviy janrlar deganda nimalarni tushunasiz?
6. Dilxiroj kuyi ohangida aytiladigan ashulani nomini bilasizmi?
7. Qaysi milliy cholg’u asbobini o’rganishni istaysiz?
8. Lapar qanday ijro etiladi?
9. To’ylarda qanday qo’shiqlar ijro etilgan.
10. Bahor fasliga oid qanday qo’shiqlarni bilasiz?

11. Maktabda musiqa san’atiga oid qanday to’garakda qatnashishni istaysiz?

12. Katta ashula qaysi jihati bilan ajralib turadi?

13. Mehnat qo’shiqlariga misol keltiring.

14. Mashhur xalq hofizlaridan kimlarni bilasiz?

15. Respublikamiz va viloyatlardagi qaysi folklor ansambllarini bilasiz?

16. Bolalar folklor qo’shiqlaridan qaysilarini nomini bilasiz?

17. Dutor cholg’usiga ta’rif beraolasizmi?

18. Zamonaviy musiqani qaysi turlarini bilasiz?

19. Qo’shiq bilan ashulani farqli jihatlarini ayting?

20. Terma haqidagi tushunchangiz.

**Ilova –2.**

1. O’zbekistondagi yetakchi mahalliy uslublarni aytib bering.

2. Qashqadaryo-Surxundaryo uslubida qaysi janrlar yetakchi hisoblanadi?

3. Rahima Mazohidova ijro etgan qo’shiqlardan qay birini bilasiz?

4. Tanovor sirasiga kiradigan qaysi qo’shiqlar nomini aytib beraolasiz?

5. Komiljon Otaniyozov ijro etgan qo’shiqlardan qay birini bilasiz?

6. Lazgi kuymi, qo’shiqmi?

7. Munojot kuyini ashula variantini qaysi bastakor yaratgan?

8. Munojot ashulasini mashhur ijrochilaridan kimlarni bilasiz?

9. Mumtoz musiqa haqida tushunchangiz?

10. Shashmaqom asosan qayerda rivojlangan va shakllangan?

11. Xalq qo’shiqlarini zamonaviy estrada yo’nalishida ijro etilishiga qanday qaraysiz?

12. Qaysi o’zbek xalq dostonlarini bilasiz?

13. Baxshilar – qanday san’atkor hisoblanadi?

14. Katta ashula qaysi voha ijrochilik uslubiga xos?

15. Shashmaqomni asosiy turkumlari (6 ta) nomlarini yozib bering.

16. O'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, ozarbayjon xalq musiqasidagi o'xshash jihatlar nimalarda ko'rinadi?

17. Shashmaqomni kim to'plab, notaga olgan?

18. Guluzorim, Bozurgoniy ashulalarini muallifi kim?

19. Alla kimlar tomonidan, qay vaziyatda aytiladi?

20. Marosim qo'shiqlari qanday paydo bo'lgan, misol keltiring?

**A.Qodiriy nomli JDPI "Musiqiy ta'lim" yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Burxonova Fotimaning "Milliy musiqiy an'analar ma'naviy tarbiya vositasi" mavzusidagi Bitiruv Malakaviy Ishiga ilmiy rahbar**

**X U L O S A S I.**

Hozirgi kunda Respublikamiz ta'lim tizimi oldida yosh avlod ruhiyatiga xalqimizning umuminsoniy qadryatlariga uyg'unlashgan milliy madaniyati, san'ati, an'analari va urf-odatlariga muhabbat tuyg'ularini singdirib shu asosida ma'naviy barkamol insonlarni shakllantirish eng dolzarb vazifalardan bo'lib turibdi. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodni xalqimizning boy milliy qadryatlaridan , san'atdan keng bahramand bo'lishini taqozo etadi. Shu jihatdan Burxonova Fotimaning "Milliy musiqiy an'analar ma'naviy tarbiya vositasi" mavzusida bajarilgan Bitiruv Malakaviy Ishi dolzarb muammoni ilmiy tadqiq etishga bag'ishlanganligi bilan harakterlidir. Xalqimiz ma'naviy merosida, xususan, milliy musiqa ijodiyotida musiqiy an'analar muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham ulardan estetik tarbiya sohasida keng foydalanish shu asosda umumta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlarning estetik madaniyatini

shakllantirishning  ilmiy, uslubiy va pedagogik asoslarini  yoritib berish tadqiqotning  bosh maqsadini tashkil etadi.

O'zbek xalqining milliy musiqiy an'analari tizimida  eng ommaviy janrlar hisoblanmish xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom namunalari  tinglash, o'rganish, kuylash, ular  haqida  keng qamrovli  ma'lumotlar bilan maqsadli ravishda o'quvchi yoshlarni tanishtirib borish, shu orqali ularda  milliy ong, milliy tafakkur va dunyo qarashni  shakllantirishga  imkon  beruvchi xulosa  hamda tavsiyalarni ishlab chiqilganligi ishning muvoffaqiyatli  bajarilganligidan dalolat beradi.

Tadqiqot obyekti, predmeti, ilmiy farazi, metadalogik asoslari  uning maqsad va vazifalariga  mos keladi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan  metodlar to'g'ri tanlangan. Ishning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, himoyaga olib chiqilgan holatlar talaba tomonidan to'g'ri belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Birinchi bobda umumiy o'rta ta'lim tizimidagi estetik tarbiya bilan bog'liq mavjud muammolar, musiqa ta'limi va tarbiyasida  xalq musiqa  ijodiyotiga e'tibor, milliy musiqiy an'analarning tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlari atroflicha yoritilgan.

Ikkinchi bobda milliy musiqiy an'analar ma'naviy tarbiya vositasiga yo'naltirilgan  pedagogik faoliyatning mazmuni, ish, shakl, uslublari amaliy mashg'ulotlar jarayonida qo'llanilgan tajribalar asosida bayon etilgan. Bu esa shu maqsadda qo'llanilgan samarali ish, shakl va usullarning butun bir yig'indisidan iboratdir.

Mazkur ish to'liq va mustaqil bajarilgan bo'lib, Bitiruv Malakaviy Ishda ilmiy muammo o'z yechimini topgan. Shunga ko'ra  Burxonova Fotimaning "Milliy musiqiy an'analar ma'naviy tarbiya vositasi" mavzusidagi Bitiruv Malakaviy Ishini munosib ish sifatida himoyaga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:** **o'qituvchi Abdukarimova E.I.**

**A.Qodiriy nomli JDPI "Musiqiy ta'lim" yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Burxonova Fotimaning "Milliy musiqiy an'analar ma'naviy tarbiya vositasi" mavzusidagi Bitiruv Malakaviy Ishiga**

**T A Q R I Z.**

Respublikamizda ta'lim tarbiya ishlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish, uni milliy negizini mustahkamlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va fan texnika yutuqlari asosida shakllantirishga ustuvor ahamiyat berilayotganligi bejiz emas. Zotan, har jihatdan bilimli shaxsni ma'naviy barkamolliksiz komil inson sifatida baholash mumkin emas. Ma'naviy komil insonni shakllantirish esa eng avvalo, milliy-madaniyat, san'at, adabiyot, tarix, pedagogika-psixologiya fanlarini o'zaro uyg'unligida inson qalbini, ruhiyatini, milliy ong, tafakkurini o'stirish bilan amalga oshiriladi.

Shu jihatdan Burxonova Fotimaning "Milliy musiqiy an'analar ma'naviy tarbiya vositasi" mavzusidagi Bitiruv Malakaviy Ishi kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish o'quvchi yoshlarni xalqimizning milliy musiqa merosi vositasida ma'naviy tarbiyasini shakllantirishning didaktik mazmuni, pedagogik-psixologik, metodik asoslarini yoritib berishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur Bitiruv malakaviy ishida milliy musiqiy an'analarning xalqimzning ijtimoiy-madaniy hayotida tutgan o'rni, uning tarbiyaviy-ta'sirchanlik imkoniyatlari va imkoniyatlardan yoshlarning badiiy-estetik tarbiyasida foydalanishga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyatning o'ziga xos mohiyati ochib berilgan. Ishning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsad va vazifalari, obekti, predmeti va ilmiy amaliy ahamiyati dalillangan.

Birinchi bob mazmunida muammoni o'rganilganlik darajasi ma'naviy tarbiya yo'nalishida amalga oshirilgan tadqiqotlar misolida tahlil qilingan va

hozirgi kunda e’tiborga molik mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yuzasidan fikr-mulohazalar o’z ifodasini topgan.

Ikkinchi bob “Milliy musiqiy an’analar vositasida o’quvchilarni ma’naviy tarbiyalashning pedagogik shart - sharoitlari” deb nomlanib, unda milliy musiqiy an’analar tasnifi, janr xususiyatlarini tanlab olishning o’ziga xos mezonlari ishlab chiqilgan.

Chiqarilgan xulosa va ilgari surilgan tavsiyalar ilmiy ishni yuqori saviyada bajarilganligi va yakunlanganligidan dalolat beradi.

Ishni tamoman kamchiliklardan holi deyish fikridan yiroqmiz. Unda qaytariq jumlalar, imloviy xatolar uchraydi. Bular juz’iy kamchiliklar bo’lib, ishning ochiq himoyasiga tavsiya etishga xalal bermaydi.

Burxonova Fotima tomonidan bajarilgan Bitiruv Malakaviy ishi uni bajarishga qo’yilgan talablarga to’liq javob beradi, ishni himoyaga tavsiya etaman.

**Jizzax pedagogika kolleji**

**Oliy toifali musiqa o’qituvchisi: To’xtayev. D.O.**

**A.Qodiriy nomli JDPI “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi bitiruvchi kurs talabasi Burxonova Fotimaning “Milliy musiqiy an’analar ma’naviy tarbiya vositasi” mavzusidagi Bitiruv Malakaviy Ishiga**

## T A Q R I Z.

Xalq ommasining ijtimoiy-ruhiy qiyofasi va ma’naviy hayotining shakllanishiga fanning taraqqiyoti muhim ta’sir ko’rsatadi. Hozirgi kunda ta’lim sohasida bo’layotgan o’zgarishlar milliy-madaniy qadryatlardan unumli foydalangan holda barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadiki, bu nafaqat hayotning ma’naviy sohasida, balki xalq ommasining ruhiyatida, ongida muhim o’zgarishlar yasamoqda.

Shu jihatdan Burxonova Fotimaning Bitiruv Malakaviy ishi mavzusi to’g’ri tanlangan va dolzarb muammoda bag’ishlangan. Bu birinchidan mustaqillik, ma’naviyat, vatanparvarlik mafkurasini yaratishga qo’yilgan ijtimoiy buyurtmani bajarishga qo’l kelsa, ikkinchidan ijodkor, xalq qadryatlarini e’zozlovchi barkamol avlodni shakllantirish ishiga muhim hissa qo’sha oladi. Tadqiqotning yana bir tomoni shundaki, u bo’lg’usi musiqa o’qituvchilarining tarbiyaviy bilim va malakalarini oshirishda katta metodik yordam ko’rsata oladi. Umumta’lim maktablarida faoliyat ko’rsatayotgan musiqa o’qituvchilarini aksariyat ko’pchiligini xalq musiqa merosi bo’yicha yetarli tayyorgarlikka ega emasliklari, maktabda xalq musiqa ijodiyotiga oid o’quv-uslubiy manbaalarning yetarli emasligi, qolaversa xalq milliy musiqiy vositalari sifatida o’quvchi-yoshlarni ma’naviy madaniyatini shakllantirishning ilmiy va uslubiy asoslari shu kunga qadar maxsus ishlab chiqilmaganligini hisobga olsak Burxonova Fotimaning tadqiqot ishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot kirish,ikki bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Ishning kirsh qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot mandai, maqsadi, vazifalari, ilmiy farazi, himoyaga olib chiqiladigan holatlar to’g’ri belgilangan va ilmiy jihatdan asoslangan.

Birinchi bob “O’zbek milliy musiqiy an’analar rivojlanishining tarixiy tadriji” deb nomlanib, unda musiqa estetika fanlari sohasidagi mavjud muammolar mavzuni, o’rganilganlik darajasi, xalq milliy musiqiy an’analari vositasida ma’naviy tarbiyalashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari atroflicha

tahlil qilangan. Ma’naviy tarbiyalashning maqsad va vazifalari milliy musiqiy ta’lim oldiga qo’yilgan zamonaviy talablarga mos ravishda belgilab berilgan.

Ishning ikkinchi bobi “Milliy musiqiy an’analar vositasida o’quvchilarni ma’naviy tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari” deb nomlanib, unda muallif tomonidan milliy musiqiy an’analar orqali o’quvchi-yoshlarni ma’naviy-estetik madaniyatini shakllantirishning pedagogik negizlari yoritib berilgan. Shu o’rinda suhbat, munozara musiqiy asarlarni tahlil qilish, musiqiy sayohat, ekskursiya, uchrashuvlar, ma’ruza konsertlar, musiqiy ijrolarni tinglash kabi ish shakllarini samaradorlik xususiyatlari asoslab berilgan.

Bitiruv Malakaviy ish mazmuni bir qator e’lon qilingan ishlarda amaliyotga tadbiq qilingan.

Umuman olganda mazkur ish Bitiruv Malakaviy Ishni bajarish bo’yicha “Nizom” talablariga to’liq javob beradigan darajada mustaqil bajarilgan va yakunlangan, muallif o’z oldiga qo’yilgan maqsad va vazifalarga erishgan.

Shu o’rinda tadqiqot ishining mohiyati ilmiy qiymatiga jiddiy salbiy ta’sir ko’rsatmaydigan ayrim nuqsonlar mavjudligini etirof etishni o’rinli deb bilamiz:

1. Tadqiqot ishida tarbiya metodlari bilan tadqiqot metodlari ayrim o’rinlarda bir xil ta’riflangan.

2. Ishning 14, 23, 37, 42 sahifalarida qaytarilishlar bor.

Mazkur kamchiliklar juz’iy kamchiliklar bo’lib, ishni ochiq himoyaga tavsiya etishga monelik qilmaydi. Ishni asosli deb hisoblayman va himoyaga tavsiya etaman.

**Katta o’qituvchi:** **A. Maxammatov**